

ZAMONAVIY YOSHLARDA TARBIYANING AHAMIYATI.**Mirqurbonova Dilnava Ismoiljon qizi***O'zbekiston Milliy universiteti**Milliy go'ya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim 2-kurs talabasi**dilnavomirqurbonova@gmail.com*

Annotatsiya: Zamonaviy yoshlarda tarbiyaning tutgan o'rni juda katta bugungi kunda tarbiya nafaqat oilada, balki maktabda, jamiyatda, va axborot texnologiyalari orqali ham shakllanadi. Yoshlarga ongli va mas'uliyatli bo'lishini, jamiyatda o'z o'rnini topishini, ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish juda muhim. Zamonaviy yoshlar globalizatsiya va texnologik yangiliklar tufayli turli madaniyatlar, ideologiyalar va yondashuvlar bilan tanishib, ko'p millatli va turli fikrlarga ega jamiyatda tarbiyalanmoqda. Bu esa ularda yuksak axloqiy qadriyatlar, inson huquqlari, tenglik, hurmat kabi tushunchalarga nisbatan mas'uliyatni oshirishni talab qiladi.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, ijtimoiy munosabatlar, globalizatsiya, ideologiya, inson huquqlari, innovatsiya, intellektual.

Kirish. Zamonaviy yoshlarda tarbiya ko'proq axborot va bilimlarga asoslangan bo'lib, innovatsiyalarni qabul qilish, intellektual va shaxsiy rivojlanishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu bilan birga, jamiyatdagi muammolarni hal etishga qaratilgan tadbirlar, ijtimoiy faollik va siyosiy mas'uliyatni anglash ham zaruriyatga aylangan. Yoshlarni axloqiy tarbiya, rahbarlik, o'z-o'zini boshqarish va mehnat qilish kabi qadriyatlar bilan ta'minlashning ahamiyati ayniqsa kundalik hayotda yuksakdir.

Zamonaviy yoshlarda tarbiyaning ahamiyati bugungi kunda yanada oshib borishi tabiiy hol albatta, chunki ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlar ularning hayotiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Tarbiya nafaqat axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda balki yoshlarni jamiyatda mas'uliyatli, etika va axloq qoidalariga rioya qiladigan, kelajakda muvaffaqiyatli insonlar bo'lishiga yo'l ochishda muhim rol o'ynaydi. Yoshlarga mustahkam axloqiy qadriyatlarni o'rgatish ularni jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Ular yaxshi odob-axloqqa ega, hurmatli va mas'uliyatli shaxslar bo'lib ulg'ayishadi. Tarbiya shuningdek, yoshlarni o'z xulq-atvorlarini nazorat qilishga o'rgatadi, bu esa jamiyatda tartibni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy yoshlarni ijtimoiy faollikka undash va jamiyatda faol ishtirok etishga yo'naltirish bu juda muhim. Tarbiya yoshlarni ijtimoiy faollikka undash orqali ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga, boshqalarga yordam berishga, ekologik va iqtisodiy muammolarni ongli ravishda hal qilishga o'rgatadi. Bu ularga ijobiy ta'sir ko'rsatib, jamiyatda o'z o'rnilarini topishga yordam beradi. Tarbiya ta'lim jarayoning ajralmas qismidir. Zamonaviy yoshlar o'z bilimlarini kengaytirish, turli sohalarda malakalarni oshirish orqali kelajakda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun tarbiyaning asosiy masalalaridan biri ta'limni yaxshi o'zlashtirish va ilmga bo'lgan qiziqishni rivojlantirishdir.

Bugungi kunda yoshlar turli madaniyatlar, millatlar va tillar bilan muloqotda bo'lmqda. Tarbiya yoshlarni o'z fikrlarini mustaqil tarzda ifodalashga, mantiqiy fikrlashga va muammolarni hal qilishda ijodiy yondashishga o'rgatadi. Bu ularni o'z hayotlarini boshqarishda va kelajakdagi qiyinchiliklarga qarshi kurashishga tayyorlaydi. Zamonaviy tarbiya yoshlarga texnologiyalarni samarali va mas'uliyat bilan ishlatishni o'rgatishi kerak. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ular yangi bilimlarga ega bo'lib, global miqyosida o'zlarini ifodalashi mumkin, lekin bu jarayonda axloqiy me'yorlarni ham unutmaslik kerak. Zamonaviy yoshlarga o'z hissiyotlarini boshqarishni, stress bilan kurashishni va psixologik barqarorlikni saqlashni o'rgatish muhimdir. Bu ularda o'zini yaxshi his qilishini, qarorlar qabul qilishda aniq bo'lishini va ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Zamonaviy tarbiya yoshlarni kreativ fikrlashga, yangi g'oyalar va innovatsiyalarni ishlab chiqishga rag'batlantiradi. Texnologiyalar global tarmoqlar orqali yoshlar yangi bilimlar va imkoniyatlarga ega bo'lib, o'zlarini yaratish va o'zgaritirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tarbiya, insonni doimiy ravishda o'zini rivojlantirishga, bilim olishga, yangi ko'nikmalarni o'zlashtirishga undaydi. Bu o'z navbatida, insonni jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi. Tarbiya yuksak axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, yomon odatlarni yo'qotish va to'g'ri axloqiy qarorlar qabul qilishni o'rgatadi. Tarbiya haqida jadid bobomiz Abdulla Avloniy juda to'g'ri fikrlarni ilgari surgan: "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir¹". deb ta'kidlaydi. Bu so'zlar tarbiyaning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini naqadar muhim ekanini ko'rsatadi. U holda tarbiya yo'q bo'lsa, jamiyat johillik va buzuvchilik botqog'iga botib qolishini uqtiradi va tarbiyani quyidagi jihatlardan orqali tavsiflaydi:

Avloniy tarbiyani ilmning markaziy qismi sifatida ko'rgan. U insonning komil bo'lishi uchun halollik, adolat, mehr-muhabbat, sabr-toqat va mehnatsevarlik kabi xislatlarni rivojlantirishni muhim deb hisoblagan.

Jismoniy va ruhiy tarbiya: U bolalarni sog'lom o'sishi va baquvvat bo'lishi uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati alohida ekanligini ta'kidlaydi. "Jismoniy jihatdan sog'lom bo'lmagan insonni barkamol deb bo'lmaydi²". Shu bilan birga, ruhiy tarbiyani ham e'tibordan chetda qoldirmagan va bu ikki yo'nalish birgalikda olib borilsa, barkamol insonni tarbiyalash mumkinligini aytgan.

Milliy va diniy tarbiya: Avloniy yosh avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va din asoslariga tayanishni taklif etgan. Uning fikricha, millatni rivojlantirish va uning ma'naviy merosini saqlash faqat milliy tarbiya orqali amalga oshiriladi.

Bilim va ma'rifat tarbiyabing asosi: U ta'lim va tarbiyani bir butun jarayon sifatida ko'rgan. Uning fikricha, bolalarga tarbiya berishda bilimga intilishni, o'qishni va o'z ustida

ishlashni o'rgatish asosiy vazifalarda biridir. "Tarbiya bir millat uchun hayot- mamot masalasidir. Tarbiya bo'lmasa, bir millatning yo'q bo'lib ketishi muqarrardir"³.

Oilaviy tarbiyaning ahamiyati: Avloniy oilani tarbiya maskani deb hisoblagan . U ota-onalarga murojaat qilib, odob-axloq qoidalariga o'rgatishni va ularni milliy ruhda tarbiyalashni tavsiya qilgan. „Bir millatning obod bo'lishi yaxshi tarbiyaga, inqirozi esa tarbiyasizlikka bog'liqdir“ Shunday qilib har bir oila bir jamiyatni tashlik etar ekan. Jamiyatdagi tarbiyani avvalo oiladan boshlashimiz darkor.

Avloniy tarbiyani jamiyatni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida ko'rgan va bu borada ota-onalar, o'qituvchilar hamda butun jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qilgan. Uning tarbiya haqidagi fikrlari bugungi zamon uchun dolzarb bo'lib qolmoqda. Abdulla Avloniyning tarbiya haqida fikrlari o'z vaqtida katta ahamiyatga ega bo'lgan va hozirgi kunda ham dolzarbdir. Avloniyning fikricha, haqiqiy tarbiya insonda ilm va axloqni birlashtirishi lozim. Faqat bilimga ega bo'lish yetarli emas, odam axloqan pok va jamiyatga foydali bo'lishi kerak. U: "Ilmsiz tarbiya- qanotsiz qush kabidir"⁵. Bu fikr tarbiyaning faqatgina shaxsiy emas, balki milliy va jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi omil ekanligini ochib beradi. Chunki yaxshi tarbiya olgan shaxs har doim o'zining ijobiy hissasini jamiyat rivoji uchun qo'shadi.

Tarbiya ko'p qirrali jarayon bo'lib, quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Ma'naviy- axloqiy tarbiya: shaxsda vatanparvarlik, insoniylik, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirishini o'z ichiga oladi. Ma'naviy tarbiya milliy qadriyatlarni targ'ib qilish orqali amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya: sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan. Jismonan sog'lom odam mehnat qilishga, hayotda faol bo'lishga qodir. Intelktual tarbiya: shaxsning bilim olishiga intilishini rag'batlantirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ilmga chanqoq inson doim yuksalishda davom etadi. Mehnat tarbiyasi: mehnatsevarlik, mas'uliyat, mehnatga hurmat fazilatlarini shakllantiradi . Mehnat tarbiyasi shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi.

Estetik tarbiyasi: insonda san'atni, go'zallikni anglash qobiliyatini rivojlantirishni maqsad qiladi. Go'zallikni tushungan shaxs o'z hayotini yanada mazmunli qiladi.

Tarbiyaning boshlang'ich manbasi – oila .

Oila tarbiya jarayonining birinchi va eng muhim bo'g'inidir. Bola o'zining dastlabki axloqiy ko'nikmalarini oiladan oladi. Oiladagi tarbiyaning sifatiga qarab bolada jamiyatga bo'lgan munosabat shakllanadi. Oilada sevgi, hurmat va mehr-muhabbat muhitini yaratish tarbiyaning muvaffaqiyatli bo'lishiga asos bo'ladi.

Zamonaviy tarbiyaning talablari:

Hozirgi kunda tarbiya jarayoni jamiyatdagi globallashuv, texnologik rivojlanish va madaniy xilma-xillik sharoitida yangi talablarga javob berishi lozim. Yosh avlodni

tarbiyalashda milliy qadriyatlar bilan bir qatirda zamonaviy bilim va tajribalardan foydalanish muhimdir. Bu borada quyidagilar e'tiborga olinishi zarur:

Axborot vositalarining ta'siri- bolalar ommaviy axborot vositalaridan oqilona foydalanishga o'rgatilishi kerak.

Global muhitga moslashish- yoshlarni xalqaro madaniyatni tushunishga va shu bilan birga o'z milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga o'rgatish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tarbiya masalasiga katta e'tibor qaratib, uni millat kelajagini belgilovchi eng muhim omil sifatida ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, tarbiya jarayoni faqat oila yoki maktab bilan cheklanmasdan, butun jamiyatning asosiy vazifasi bo'lishi kerak. Prezident tarbiyani har bir insonning ma'naviy va intellektual rivojlanishining poydevori deb biladi. "Yoshlarga nafaqat bilim berish, balki ularga to'g'ri tarbiya berish orqali yuksak ma'naviyatli va mas'uliyatli insonlarni voyaga yetkazishimiz kerak. Bu bizning oliy maqsadimizdir." Prezident yoshlarni milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillar asosida tarbiyalashni muhim deb biladi: "Yoshlarga o'z milliy madaniyatini qadrlashni, o'z ildizlariga hurmatni o'rgatish bilan birga, ularni dunyo qarashi keng va insoniyatga foydali bo'ladigan qilib tarbiyalashimiz kerak".-degan g'oyalarni ilgari suradi.

Har bir bola va yoshlarning qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari turlicha. Zamonaviy tarbiya har bir shaxsga mos yondashuvni talab qiladi. Bu shaxsning kuchli tomonlarini rivojlantirish va zaif tomonlarini mustahkamlashga yordam beradi. Zamonaviy dunyoda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish juda muhim. Farzandlarni mehr-oqibat, mehnatsevarlik, halollik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jamiyatning rivoji uchun asosiy omildir.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytib o'tish kerakki, zamonaviy tarbiya-bu faqat texnik yoki akademik rivojlanish emas, balki insonning har tomonlama barkamolligini ta'minlash jarayoni. U otalar, pedagoglar va jamiyatning o'zaro hamkorligi orqali amalga oshiriladi. Shu sababli, tarbiya jarayonini zamon bilan hamnafas ravishda tashkil qilish hayotiy ahamiyatga ega. Globallashuv jarayonida tahdidlar masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, barcha sohalarda bo'lgani kabi jamiyat yoki jamiyatning kelajagi bo'lmish yoshlar ma'naviy tarbiyasiga ham turli salbiy illatlarni olib kirishi bilan birga ularning o'z madaniyatidan, qadriyatlaridan, milliy urf-odatlardan va o'z tarbiyasidan begonalashishiga ta'sirini o'tkazmoqda. Avvalo, globallashuv- bu ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayon bo'lib, xalqning madaniyatiga va tarbiyasiga kuchli ta'sir etuvchi hodisa sifatida o'rganiladi.

Globallashuv- dunyoda axborot almashinuvining o'sishi orqali madaniyat, ilm-fan, tarbiya sohasiga ham kirib keldi. Natijada millat madaniyatiga ta'sir etuvchi tahdidlar insoniyat oldiga chiqdi. Chetdan kirib kelgan yod g'oyalar yoshlar ongini individualizm, egotsentizm g'oyalari bilan zaharlovchi, ular ongida o'z milliy qadriyatlarini, urf-odatlari, tarixi va tarbiyasi hamda ma'naviyatidan begonalashuv holatlarining vujudga kelishi kabi

ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarni oldini olishimiz kerak. Buning uchun esa har birimiz o'zimizda tarbiyaviy immunitetni shakllantirishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy hikmatli so'z muallifi, sayt "hikmatlar.uz"
2. Abdulla Avloniy „Turkiy guliston yoxud axloq“